

**QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORT SALOHIYATINI
OSHIRISHDA VUJUDGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR VA ULARNING
YECHIMLARI**

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali katta o‘qituvchisi

A.A. Nizametdinov

alwaysbirich@gmail.ru

O‘zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

Fozilova Dildora Odil qizi

+99895-929-96-69

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari haqida fikr mulohazalar keltirilgan. Qolaversa, qishloq xo‘jaligi resurslaridan samarali foydalanishda raqamlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, mahsulotlar sifat va xavfsizligi, eksport, import, Global GAP, ISO 22000 standarti.

Yurtimizda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifati va xavfsizligini ta‘minlash, eksport salohiyatini oshirish yo‘nalishida bajarilayotgan keng ko‘lamli ishlar, uzoq yillar davomida qishloq xo‘jaligi sohasini tubdan isloh qilish, unga ilg‘or va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatini butunlay yangi bosqichga olib chiqdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu ayniqsa, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, meva-sabzavot yetishtirish, ishlab chiqarish, saqlash, qadoqlash va eksport qilishdagi yuqori ko‘rsatkichlarda yaqqol aks etmoqda.

Bugungi kunda eksport qilingan meva-sabzavotlarimiz dunyoning turli burchaklarigacha yetib boryapti. Oxirgi yillarda mahsulotlarni MDH mamlakatlaridan tashqari yirik tashqi bozorlar: — Xitoy, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Boltiqbo‘yi davlatlariga eksport qilish yo‘lga qo‘yildi. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishslashda mahsulot sifatining yaxshilanishi, qadoqlash jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi hisobiga dunyoda o‘zbek mahsulotlari, ayniqsa, gilos, anor, qovun, quritilgan mevalar, yong‘oq va uzumga bo‘lgan talab ortib bormoqda.

Hozirgi zamon talabiga mos qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlarga qator imtiyozlar, imkoniyatlar, zarur shart-sharoitlar yaratilib, ayrim mahsulot turlari bojxona to‘lovlaridan ozod qilinayotgani, zamonaviy issiqxonalar barpo etish uchun imtiyozli kreditlar ajratilayotgani yurtimiz eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish haqida gap borganida, e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan yana bir muhim jihat mahsulotning jahon standartlari talabiga javob berishi hisoblanadi.

Oxirgi yillarda bu yo‘nalishda ham sezilarli o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda. Ko‘plab dehqonlar, fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksporti bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarga GLOBALG.A.P, Organic, HACCP kabi xalqaro sertifikatlarning berilishi noan’anaviy bozorlar, jumladan, Yevropa davlatlariga yo‘l ochmoqda. Xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritish ko‘pchilik o‘ylaganidek tez va oson kechadigan jarayon emas, balki buning uchun yillab vaqt kerak bo‘ladi. Masalan, dehqon yeriga uzum ekayotgan bo‘lsa, yeri, suvining tarkibi va sifatidan tortib uzumning navi, hosildorlik darajasigacha tekshiruvdan o‘tkazilishi kerak bo‘ladi. Barcha jarayonlar tahlildan muvaffaqiyatli o‘tib, talabga javob beradi deb topilganidan keyingina xalqaro sertifikat beriladi. Bundan tashqari, mahsulot jahon bozorida o‘z o‘rnini topishi uchun eksportyor tinimsiz o‘z ustida ishlab, meva-sabzavot sifati, uzoq yo‘lga chidamliligi, eng muhim, xaridor topishda bilim va tajribaga ega bo‘lishi lozim. Bugungi kunda ko‘plab tadbirkorlar, dehqon va fermer xo‘jaliklari ana shu jihatlarni o‘rganib, ko‘nikmalar hosil qilishi, ularga berilayotgan qator imtiyoz va imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanishi natijasida eksport borasida sezilarli yutuqlarga erishayotganini ham ta’kidlashimiz joiz. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi bu borada yetakchilik qildi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida xorijga meva va sabzavotlar eksport qilgan hududlar orasida Farg‘ona viloyati bиринчи o‘rinni egalladi – 289,3 ming tonna. Davlat statistika qo‘mitasi dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, undan keyingi o‘rinlardan mos ravishda 217 ming tonna hamda 180,1 ming tonna meva va sabzavotlar eksport qilingan Toshkent viloyati va Samarcand viloyati joy oldi. Ushbu ko‘rsatkich qolgan hududlar bo‘yicha quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ldi:

- Surxondaryo viloyati – 157 ming tonna;
- Xorazm viloyati – 144 ming tonna;
- Namangan viloyati – 141,5 ming tonna;
- Andijon viloyati – 106,8 ming tonna;
- Toshkent shahri – 89,1 ming tonna;
- Jizzax viloyati – 77,1 ming tonna;
- Buxoro viloyati – 67,6 ming tonna;
- Qashqadaryo viloyati – 49,3 ming tonna;
- Sirdaryo viloyati – 45,4 ming tonna;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 23,7 ming tonna;
- Navoiy viloyati – 10,6 ming tonna.

Hozirgi kunda Respublikamiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ko‘plab turlarini yetishtirish, ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash hamda eksport salohiyatini oshirish borasida katta imkoniyatga ega. Lekin, bu imkoniyatlardan hozircha yetarlicha foydalanilayotgani yo‘q. Mamlakat eksport salohiyatining yuksalishida qishloq xo‘jaligi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston joriy yilda xorijiy davlatlarga Davlat statistika

qo'mitasi dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijga qiymati 1,0 mldr. AQSH dollari qiymatidagi 1,6 mln. tonna meva va sabzavotlar eksport qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 168,3 ming tonnaga oshgan.

Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida yetishtirilayotgan eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifati va xavfsizligini ta'minlash, raqobatbardoshligi hamda eksport salohiyatini oshirishdagi muommo va ularning yechimlari bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda eksportga mo'ljallab ko'proq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, xavfsizligini ta'minlash hamda savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xavfsizligini ta'minlashda xalqaro standartlar talabları bilan uyg'unlashtirish, ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar, eksport va import qiluvchilarning sifatsiz chiqarilgan mahsuloti uchun javobgarlik darajasini oshirishga, bozorda xavfli mahsulotlar realizatsiyasining oldini olishga qaratilgan davlat nazoratini kuchaytirishga, mahalliy mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, umumiyligiga maxsus texnik reglamentlarni qishloq xo'jaligiga keng joriy etish, mahsulotlarni xavfsizligiga qo'yilgan talablar, xalqaro standartlarni eksportyor korxonalarda joriy qilish va ularni qo'llab-quvvatlash, sertifikatlashtirish yo'nalişlarida amaliy yordam ko'rsatish eng asosiy vazifa bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli —O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidal gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi PF-5995-sonli —Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidal gi qarori.
3. Muminov Najmuddin Shamsiddinovich, Odinaev Mirzamad Isaevich, Abdirayimov Azizbek Ro'ziqul O'g'li, Rajabov Sardor Jumaboy O'g'li, (2021). Problems Of Quality Assurance And Export Potential Of Grapes. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 3(06), 38-44.
4. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Shonazarovich B. S. MONOPOLY ORGANIZATIONS, THEIR BENEFIT AND HARM TO SOCIETY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 111-114.
5. Akramovich N. A. et al. IMPACT OF HIDDEN ECONOMY ON SOCIETY IN UZBEKISTAN, WAYS TO REDUCE IT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 142-147.
6. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Durdona A. CONTENT AND FUNCTIONING OF THE MARKET ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 105-110.

7. Akramovich N. A., Azamatovna U. S. TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: DOLZARB TENDENTSİYALAR VA STRATEGİK YONALISHLAR //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 36-40.
8. Xolmuradovich X. B. et al. BUSINESS ETHICS AND CULTURE, RULES FOR ITS WORK //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 184-191.
9. Baxrom X., Alijon N., Aziz Z. THE ROLE OF THE PRIVATE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 130-136.
10. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 96-98.
11. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF "MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 209-210.
12. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Sherzod Y. THE ORIGINS OF CRISES AND THEIR IMPACT ON THE ECONOMIC SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 89-94.
13. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Dildora F. DEVELOPMENT OF INNOVATIVE POLICY IN THE SPHERE OF EMPLOYMENT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 201-209.
14. Alijon N., Sirojiddin S., Azizbek A. FRANCHISE SYSTEM IN BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 250-257.
15. Susanna V., Ali N., Asliddin T. INNOVATIVE AND DEVELOPMENTAL ECONOMY OF UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 304-310.
16. Xolmuradovich X. B. et al. IMPORTANCE OF BANKING SYSTEM IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 218-224.
17. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Matlab I. SEMANTIC MODULES IN THE LEXICAL SYSTEM OF THE LANGUAGE //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 230-237.
18. Sojida D., Bahrom H., Ali N. THE ROLE OF THE ECONOMY IN SOCIETY //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2022. – T. 2. – №. 18. – C. 309-315.
19. Xolmuradovich X. B. et al. GOVERNMENT AND NON-GOVERNMENT FORMS OF BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP SUPPORT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 258-265.

20. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Sevinch K. PRODUCTION CAPACITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES AND WAYS TO INCREASE IT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 238-241.
21. Xolmuradovich X. B. et al. THE DEVELOPMENT OF THE SPORTS SYSTEM IN UZBEKISTAN, THE GUARANTEE OF THE HEALTHY AND WELL-ROUNDED YOUTH //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 266-269.
22. Akramovich N. A. The priority of using innovative technologies in the agricultural education system //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.
23. Akramovich N. A., Sarvar G., Yassim H. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 95-99.
24. Akramovich N. A. History, subject and object of formation of "macroeconomics". Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10 (1), 209-210. – 2022.
25. Nizametdinov A. et al. The place of the digital economy in our daily life //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 100-124.
26. Nizametdinov A. et al. The nature, causes and consequences of the hidden economy and factors affecting it //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 10. – C. 22-39.
27. Nizametdinov A. et al. The place of the digital economy in our daily life //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 100-124.
28. Alijon N., Sherzod Y. Factors of insurance activity implementation //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 20-24.
29. Akramovich N. A. et al. Problems and solutions in working with the population in the banking system of Uzbekistan //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 25-30.